


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 3, Issue 8 **2025**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 8 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 8

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 8



TOШKENT-2025

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»  
№8 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-8>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor  
Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belorusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации  
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением  
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

<b>1. Safarova Svetlana Satimovna</b> XIVA XONLIGINING G‘ARBIY SIBIR HUDUDI BILAN MADANIY ALOQALARI TARIXI.....	7
<b>2. Машарипова Садокат Абдуллажоновна</b> ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ АМИРА ТИМУРА ПО КНИГЕ Т. ВАСИЛЬЧЕНКО “ЭМИР ТИМУР. ИСТОРИЯ, ЛИЧНОСТЬ, ВРЕМЯ”.....	14
<b>3. Raufjon Mahmudov, Sultonova Jayrona</b> O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING LEKSIK QATLAMLARI VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	19
<b>4. Шухрат Эркинович Худайбергенов</b> ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ КЛАССИЧЕСКИХ КИНОКОМЕДИЙ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ РАКУРСЕ.....	26
<b>5. Bobir Maxammadov</b> MIKROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING MAXSUS LUG‘ATLARDA BERILISHI.....	32
<b>6. Raufjon Mahmudov, R.Allaberganova</b> O‘ZBEK TILIDAGI TARIXIY ANTROPONIMLAR.....	37
<b>7. Abdullayeva Shaxnoza</b> TERMINOLOGIYA VA ONTOLOGIYA MUNOSABATLARI.....	43
<b>8. Raufjon Mahmudov, Nilufar Zaripova</b> ABU RAYHON BERUNIYNING “OSOR UL-BOQIYA” ASARI VA TILSHUNOSLIK AN‘ANALARI.....	54
<b>9. Rasulqulova Sitora Shodmonjonovna</b> O‘G‘UZ LAHJASINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA BILINGVIZM JARAYONLARI..	59
<b>10. Raufjon Mahmudov, Dilfuza Ruzmatova</b> JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING XORAZM MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI.....	64
<b>11. Sherzod Atajanov</b> UMUMERONIY TILLAR BILAN BOG‘LIQ ANTROPONIMIK TIZIM.....	72
<b>12. Safarova Svetlana Satimovna</b> XV – XVI ASRLARDA XORAZM VOHASINING QUYI VOLGABO‘YI HUDUDLARI BILAN ALOQALARI.....	77
<b>13. Вазира Муродова</b> “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ КОГНИТИВ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	83
<b>14. Вазира Муродова</b> “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ ЭТИМОЛОГИК – СЕМАНТИК ТАМОЙИЛЛАРИ.....	89


## TARIX

- 15. Matqurbonov Omonbek Odilbekovich, Jumanazarova Sadoqat Zafarbek qizi**  
KARVON YO'LI BO'YLAB HARAKAT QILGAN XORAZM SAVDOGARLARINING  
SHARQIY YEVROPA VA KAVKAZDAGI FAOLIYATI.....99
- 16. Ismailov Bobur Baxramovich**  
XIVA XONLIGIDA SO'NGGI O'RTA ASRLARDA METALSOZLIK XOM-ASHYO  
MANBALARI VA TASHQI SAVDO ALOQALARI TARIXI.....103
- 17. Palvanova Tuxtajon Palvanovna**  
XORAZMDA TEATR SAN'TINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI.....108

**Ismailov Bobur Baxramovich-**

Urganch davlat universiteti, Tarix kafedrası, o'qituvchisi

E-mail: bi.ismailov@gmail.com

**XIVA XONLIGIDA SO'NGGI O'RTA ASRLARDA METALSOZLIK XOM-ASHYO  
MANBALARI VA TASHQI SAVDO ALOQALARI TARIXI** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17154676>**ANNOTATSIYA**

Maqolada Xiva xonligida XVIII–XIX asrlarda metallsozlik sohasi uchun zarur bo'lgan xom-ashyo manbalari va tashqi savdo aloqalari tahlil qilinadi. Sultonuways va Shayxjalil tog'laridagi qadimiy konlar haqida rus elchilari, ofitserlari va mahalliy mualliflar bergan ma'lumotlar o'rganilgan. Shuningdek, xivalik savdogarlarning Rossiya imperiyasi bilan olib borgan savdo faoliyati, oltin va kumush tangalar, qotishmalar hamda boshqa mahsulotlarning tashqi bozorlarga chiqarilishi yoritilgan. Tadqiqotdan ko'rinadiki, xonlikda ichki konlardan tashqari metall xom-ashyosi asosan tashqi savdo orqali ta'minlangan.

**Kalit so'zlar.** Xiva xonligi, metallsozlik, xom-ashyo manbalari, tashqi savdo, oltin, kumush, Sultonuways, Shayxjalil

**Исмаилов Бобур Бахрамович-**

Ургенчский государственный университет,

преподаватель кафедры истории

**ИСТОЧНИКИ СЫРЬЯ ДЛЯ МЕТАЛЛУРГИИ И ВНЕШНЕТОРГОВЫЕ СВЯЗИ  
ХИВИНСКОГО ХАНСТВА В ПОЗДНЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ****АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются источники сырья для металлургии и внешнеторговые связи Хивинского ханства в XVIII–XIX вв. Изучены сведения русских послов, офицеров и местных авторов о древних рудниках Султонувайса и Шайхжалиля. Особое внимание уделено деятельности хорезмских купцов в торговле с Российской империей, а также экспорту золотых и серебряных монет, слитков и других товаров. Анализ показывает, что сырье для металлургии ханство получало не только из местных рудников, но и в значительной степени через внешнюю торговлю.

**Ключевые слова.** Хивинское ханство, металлургия, источники сырья, внешняя торговля, золото, серебро, Султонувайс, Шайхжалиль.

**Ismailov Bobur Baxramovich-**

Urganch State University

Teacher at the Department of History

## RAW MATERIAL SOURCES AND FOREIGN TRADE RELATIONS OF THE KHIVA KHANATE IN THE LATE MIDDLE AGES

### ABSTRACT

The article examines the raw material sources for metallurgy and foreign trade relations of the Khiva Khanate in the 18th–19th centuries. It studies the accounts of Russian envoys, officers, and local authors regarding the ancient mines of Sultonuvays and Shaykhjalil. Special attention is given to the role of Khivan merchants in trade with the Russian Empire, including the export of gold and silver coins, ingots, and other goods. The analysis shows that, besides local deposits, the Khanate largely relied on foreign trade for securing metallurgical raw materials.

**Keywords.** Khiva Khanate, metallurgy, raw material sources, foreign trade, gold, silver, Sultonuvays, Shaykhjalil

### KIRISH VA DOLZARBLIGI

So‘nggi o‘rta asrlarda Xiva xonligi hududida metallsozlik sohasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan. Mazkur davrda xom-ashyo manbalarining shakllanishi, konchilik ishlari va tashqi savdo aloqalari orqali metall ta‘minoti xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida alohida ahamiyat kasb etgan. Rus ofitserlari va sayohatchilarining kuzatuvlari, shuningdek mahalliy tarixiy asarlar Sultonuvays va Shayxjalil tog‘laridagi qadimiy konlar, oltin va kumush qazib olish jarayonlari, shuningdek mis va temirning tashqi manbalardan olib kiritilganini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, Xiva savdogarlarining Rossiya imperiyasi bilan olib borgan savdo faoliyati, oltin va kumush tangalarning asosiy almashinuv vositasi sifatida qo‘llanishi xonlik iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etgan. Ushbu maqolada xom-ashyo manbalari va tashqi savdoning Xiva xonligi metallsozlik sohasi taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy tahlil qilinadi.

### METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Xiva xonligi metallsozlik xom-ashyo manbalari haqida rus manbalari, geologik tadqiqotlar va mahalliy asarlarda turli ma‘lumotlar uchraydi. A. Kun, M.I. Ivanin, N.P. Barbot-de-Marni kabi mualliflarning kuzatuvlari Sultonuvays va Shayxjalil tog‘larida qadimiy konlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Geologik tekshiruvlarda oltin va kumush izlari aniqlangan bo‘lsa-da, ularning hajmi kichik va ekspluatatsiya muddati qisqa bo‘lgan. Shu bilan birga, rus elchilari va savdogarlarining ma‘lumotlari Xiva xonligida mis va temir asosan tashqi manbalardan – Rossiya, Eron, Qo‘qon va Buxorodan keltirilganini ko‘rsatadi. Xivalik savdogarlar faoliyatida oltin va kumush tangalar savdo mahsulotlarining asosiy qismini tashkil qilganini Moskva, Orenburg va Astraxan bozorlariga oid yozma dalillar tasdiqlaydi. Mahalliy manbalarda esa Shayxjalil tog‘idagi mis konining Muhammad Rahimxon davrigacha faoliyat yuritgani qayd etiladi. Shu tarzda, mavjud adabiyotlar metallsozlik xom-ashyo manbalari masalasini ko‘p qirrali tarzda yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi tarixiy manbashunoslik va qiyosiy tahlil usullariga asoslandi. Avvalo, rus elchilari, ofitserlari va geologlarining yozuvlari tarixiy va faktologik jihatdan o‘rganildi. Mahalliy mualliflar asarlarida keltirilgan konchilik haqidagi ma‘lumotlar bilan qiyoslash orqali xulosalar chiqarildi. Shuningdek, geologik tadqiqotlar natijalari, konlardan olingan tahlillar va savdo hujjatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu metodologik asos Xiva xonligida metallsozlik xom-ashyo manbalari hamda tashqi savdo aloqalarining o‘zaro bog‘liqligini ochib berish imkonini berdi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

A. Kun asarida yozilishicha, Sultonuvays tog‘ining Qazg‘an tog‘ tizmasidan xivaliklar marmar qazib oladilar. O‘tkan davrlarda mahalliy hoqimiyat topshirig‘i asosida Shayx Jalil tog‘idan mis qazib olganlar. Bu mis koni Muhammad Rahimxon (1804–1826 yy.) davrigacha ham faoliyat ko‘rsatgan. Mazkur mis koni Shayx Jalil mozoriga yaqin joyda bo‘lgan[1].

Rus ofitserlaridan M.I. Ivanin (1873 yil) Xiva xonligidagi foydali metall qazilmalari yo‘qligi to‘g‘risida fikr bildiradi. Uning asarida yozishicha: “xonlikda metall rudasi, qo‘rg‘oshin, mis, temir va quyma temir yo‘q. Xivaliklar ularni Rossiya, Eron, Qo‘qon va Buxorodan olishadi”[2].

Ko‘rinib turibdiki, XVIII–XIX asrlar manbalarda Xiva xonligidagi oltin va kumush konlari mavjudligi to‘g‘risida ko‘plab ma‘lumotlar mavjud. Xonlikdagi Shayxjalil tog‘ida oltin mavjudligi

haqidagi ma'lumotlarni aniqlashtirish maqsadida 1820-yilda Orenburg shahriga u joydan jigarrang temir toshni keltirishadi[3]. Orenburgdagi kon–tog' zavodida keltirilgan namuna ximiyaviy tahlillardan o'tkaziladi. Afsuski, ushbu temir tosh bo'lakhasidan oltin donachalari topilmaydi.

Bundan tashqari, Sultonuvays tog'idagi qadimgi konlarda N.P. Barbot–de–Marni tomonidan tadqiqot ishlari (1874-yil) olib boriladi. U manbalarda qayd qilingan ko'plab qadimgi konlarni o'rganadi. Lekin, konlardagi tadqiqotlar yakuni, konlardan aynan qaysi metall rudasi qazib olinganligini aniqlashga imkon bermaydi.

Sultonuvays tog'ida qadimda oltin qazib olinganmi yoki yo'q masalasini aniqlashtirish maqsadida geologik qidiruv ishlari olib borilgan[4].

Tog' tizmalaridagi ikkita uchastkadagi qadimgi konlarda oltin va kumush rudalarining izlari qisman kuzatildi. Ulardan biri Xo'jako'ldan 3 km janubi–sharqda Shayxjalil tog'i yonbag'iridagi soy yaqinida joylashgan. Kon 15–20 metr atrofida, ehtimol eksplutatsiya qilingan bo'lishi mumkin. Kondan olingan №1 tahlil natijalari oltin donachalari izlari mavjudligini ko'rsatdi.

Ikkinchi uchastka Shayxjalil tog'ining markaziy qismidagi Abumuslim qal'a qo'rg'oni atrofidagi Kandir soy yaqinida joylashgan. Bu joyda jami 4 ta kichik qadimgi konlar bo'lib, konlar kuchli kvarslangan va temir oksidlangan. Bitta tahlilda 6 ta oltin donachalari aniqlangan. Konlar hajmi katta va chuqur emas. Konlarning tashqi ko'rinishi juda yangi, aftidan XVIII–XIX asrlarga tegishli[5].

Bundan tashqari, so'nggi o'rta asrlarda Xiva xonligining chekka xududlarida ham metallurgiya ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lishi mumkin.

D. N. Logofet ma'lumotlariga ko'ra, xonlik davrida Kopetog' shimoli–g'arbiy chekkasida temir rudasi konlarining o'zlashtirilgan [6].

#### ***Xivalik savdogarlar vositachiligida Rossiya bozorlariga chiqarilgan qimmatbaho metallar.***

So'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya imperiyasi savdo–iqtisodiy aloqalarda kumush tangalar va oltin, kumush qo'yimalari savdo mahsulotlarining asosiy qismini tashkil etgan. Bu davrda O'rta Osiyo va Sharq davlatlari tomonidan Rossiya bozorlariga chiqariladigan tovarlar xivalik savdogarlar tomonidan boshqarilar edi.

Xivalik savdogarlar Moskvada xonlik deb nomlanuvchi oltin va kumush tangalarni tovar sifatida sotishgan. Xiva elchisi Hoji Yusuf 1617-yilda Moskvada oltin tangalarni sotib, "5 ta zirhli sovut, 500 pichoq, yarim pud[7] qalay, idish–tovoq va boshqada buyumlar"ni sotib olishgan[8].

Ushbu ma'lumotlar Xiva xonligiga mis, temir kabi xom-ashyolardan tashqari, qalayi, harbiy qurol–aslahalar va xo'jalik buyumlarining ham import mahsulot sifatida keltirilganligini ko'rsatadi.

XVI – XVIII asrlarda O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya o'rtasida tovar almashinuvida savdo–sotiq ishlari monopolistik ahamiyatga ega bo'lgan. O'zaro almashinadigan tovarlar ro'yxatida avvalo oltin va kumush pullar taqdim etilgan. Moskvaga O'rta Osiyodan keltiriladigan qo'yidagi mahsulotlar: ipak va yarim ipak matolar, paxta matolarni davlat oltin va kumush tangalar savdosi orqali amalga oshirilgan. Buni 1669–1671-yillarda Buxoro va Xiva, Balx va Urganchda bo'lgan elchilar B.A. va S.I. Pazuxinlar ma'lumotlari ham tasdiqlaydi[9].

Unga o'xshash oltinga sotiladigan tovarlari ro'yxati Xiva va Buxoroda bo'lgan (1675–1676) elchilar V.A Daudova va M.Yu. Qosimov tomonidan ham keltirilgan ro'yxatda beriladi: "oq ipak", "kumush", "toshlar", "yashil terilar", "o'ziga xos rang-barang matolar", "qizil barxatlar"[10].

O'rta Osiyoli, jumladan xivalik savdogarlar Orenburg va Astraxan shaharlariga Hindiston, Xitoy va Erondan keltiriladigan oltin va kumushni tashqi savdoga chiqarishgan. Kumush yombilari ot tuyog'i tarzli qo'yma shaklda tayyorlangan.

P.S. Pallasning yozishicha, Osiyolik savdogarlar oltin va kumushning katta qismini fors tangalari va hind rupiyalari shaklida keltirishadi[11]. Buxoroda Nodirshoh bosqinchiligi davrida fors tangalari va hind rupiyalari keng tarqaladi. O'z navbatida Ashtarxoniyalar davrida, fors tangalari qatorida hind rupiyalari tashqi savdoga chiqarilgan.

Buxoro elchisi 1585-yil 11-noyabrdagi, "Moskva podshosi iltimosiga binoan uning davlatida 1000 rublga kumush idishlarni sotishgan"[12]. Manbadagi ma'lumotlar XVI asrda kumushning kamyop metallga aylanganligidan dalolat beradi. XVI asrda Buxorodan kumush tanga va "idishlar" tashqi savdoga Rossiya davlati buyurtmasiga binoan chiqarilgan bo'lsa, XVIII asrda O'rta Osiyo

xonliklaridan kumushni tashqi savdoga chiqarish hajmi birmuncha ko'payadi. XVI–XVIII asrlarda Xiva xonligi va umuman O'rta Osiyo hududlarida tashqi savdo jarayonlari nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarni, balki siyosiy munosabatlar hamda diplomatik aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, oltin va kumush kabi qimmatbaho metallar savdosining Rossiya hamda Sharq mamlakatlari bilan olib borilishi xonliklarning xalqaro savdo tizimida qanchalik faol ishtirok etganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, elchilar bergan ro'yxatlar orqali biz nafaqat tovarlarning turini, balki ularning iqtisodiy qiymatini ham tasavvur qilishimiz mumkin. “Oq ipak”, “kumush”, “yashil terilar” kabi mahsulotlar o'sha davrda ham nafaqat hashamat belgisi, balki xalqaro bozorda talab yuqori bo'lgan strategik tovarlar sifatida e'tirof etilgan.

O'rta Osiyo savdogarlari faoliyatida Hindiston va Eron tangalari, shuningdek, fors dinorlari va hind rupiyalari muomalaga kirib kelgani bu hududning jahon savdo tizimidagi o'rnini yanada mustahkamladi. Buxoroda va Xivada kuzatilgan kumush yetishmovchiligi, uning idishlar va tanga ko'rinishida tashqi bozorga chiqarilishi, aslida, ichki iqtisodiyotning zaif tomonlarini ham ochib bergan. Shu jihatdan, tashqi savdodan tushadigan daromadlar ko'plab siyosiy qarorlarning moliyaviy asosini tashkil etganini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, XVI–XVIII asrlardagi savdo jarayonlari Xiva xonligi va boshqa O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodiy hayotida asosiy omillardan biri bo'lgan. Bu davrdagi savdo nafaqat moddiy almashinuv, balki madaniy va diplomatik aloqalarni ham rivojlantirgan. Tashqi savdoning bunday ko'lamli mintaqaning xalqaro maydondagi mavqeini belgilash bilan birga, keyingi iqtisodiy islohotlar va munosabatlarga ham mustahkam poydevor yaratdi. Demak, oltin va kumush tangalarning xalqaro almashuvdagi roli, ipak va paxta mahsulotlarining strategik ahamiyati, shuningdek, O'rta Osiyo savdogarlarining keng geografiyada faoliyat olib borishi — bularning barchasi o'sha davr tarixining iqtisodiy va siyosiy qiyofasini belgilab berdi.

XVI–XVIII asrlarda Xiva xonligi va umuman O'rta Osiyo hududlarida tashqi savdo jarayonlari nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarni, balki siyosiy munosabatlar hamda diplomatik aloqalarni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, oltin va kumush kabi qimmatbaho metallar savdosining Rossiya hamda Sharq mamlakatlari bilan olib borilishi xonliklarning xalqaro savdo tizimida qanchalik faol ishtirok etganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, elchilar bergan ro'yxatlar orqali biz nafaqat tovarlarning turini, balki ularning iqtisodiy qiymatini ham tasavvur qilishimiz mumkin. “Oq ipak”, “kumush”, “yashil terilar” kabi mahsulotlar o'sha davrda ham nafaqat hashamat belgisi, balki xalqaro bozorda talab yuqori bo'lgan strategik tovarlar sifatida e'tirof etilgan.

O'rta Osiyo savdogarlari faoliyatida Hindiston va Eron tangalari, shuningdek, fors dinorlari va hind rupiyalari muomalaga kirib kelgani bu hududning jahon savdo tizimidagi o'rnini yanada mustahkamladi. Buxoroda va Xivada kuzatilgan kumush yetishmovchiligi, uning idishlar va tanga ko'rinishida tashqi bozorga chiqarilishi, aslida, ichki iqtisodiyotning zaif tomonlarini ham ochib bergan. Shu jihatdan, tashqi savdodan tushadigan daromadlar ko'plab siyosiy qarorlarning moliyaviy asosini tashkil etganini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, XVI–XVIII asrlardagi savdo jarayonlari Xiva xonligi va boshqa O'rta Osiyo davlatlarining iqtisodiy hayotida asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lgan. Savdosotiq nafaqat ichki bozorni to'ldirish, balki tashqi aloqalar orqali xonliklarning davlat byudjetini boyitishda, qurol-yarog', xo'jalik buyumlari va qimmatbaho metallarni keltirishda asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, oltin va kumush tangalar muomalasi bu davrdagi iqtisodiy aloqalarning markaziy nuqtasiga aylangan bo'lib, ular xalqaro savdoda universal vosita vazifasini bajargan.

Shuningdek, ipak, paxta, yarim ipak matolar, teri mahsulotlari va qimmatbaho toshlar kabi tovarlarning Rossiya, Eron, Hindiston hamda Xitoy bilan faol almashinuvi mintaqaning jahon bozoridagi o'rnini mustahkamlab, uni turli savdo yo'llari kesishgan hudud sifatida yanada ahamiyatli qilgan. Savdo nafaqat iqtisodiy manfaatlarni ta'minlagan, balki madaniy aloqalar, texnologik yangiliklar va diplomatik munosabatlarning kengayishiga ham imkon bergan. Bu esa Xiva xonligi va boshqa xonliklarning geosiyosiy mavqeini mustahkamlashda muhim omil bo'lgan.

Bundan tashqari, Hind rupiyalari va fors tangalarining keng muomalaga kirib kelishi, Osiyo bozorlaridagi integratsiyaning kuchli bo'lganidan darak beradi. Bu hodisa, o'z navbatida, O'rta Osiyo davlatlarining moliyaviy tizimini tashqi savdoga bog'lab qo'ygan, natijada ichki iqtisodiyot ham tashqi omillardan sezilarli darajada ta'sir olgan. Ayniqsa, kumush tanqisligi sharoitida savdogarlarning uni qo'yma va idishlar shaklida tashqi bozorga chiqarishi iqtisodiy zaruriyat va xalqaro ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan chora sifatida ko'rinadi.

### XULOSA

Umuman olganda, XVI–XVIII asrlar O'rta Osiyo tarixida savdo jarayonlari moddiy almashinuvdan tashqari, xalqaro munosabatlar va madaniy aloqalarni rivojlantiruvchi kuchli mexanizm sifatida namoyon bo'lgan. Bu jarayonlar mintaqa iqtisodiyoti, siyosati va ijtimoiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatib, keyingi davrlardagi iqtisodiy islohotlar hamda savdo siyosati uchun poydevor yaratgan. Shunday qilib, Xiva va Buxoro kabi xonliklarning savdo tajribasi bugungi kunda ham tarixiy tajriba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

### Iqtiboslar / References / Сноски

1. Кун А. Культура оазиса низовьев Аму-Дарья. – СПб., 1873 // Туркестанский сборник. Том.123. – С.238.
2. Иванин М.И. Хива и река Аму-Дарья. – СПб. 1873. – С.35.
3. Бубнова М.А. Добыча полезных ископаемых в Средней Азии в XVI–XIX вв. – С.38.
4. Лопатин С.В., Пругер Е.Б., Ермилов Л.Г Карта размещения древних выработок на территории Узбекистана. Т.1. Объяснительная записка. 1964. Рукопись фонда Реаизионно-тематической экспедиции Госгеолкома Узбекистана. № 68.
5. Бубнова М.А. Добыча полезных ископаемых в Средней Азии в XVI–XIX вв. – С.38.
6. Бубнова М.А. Добыча полезных ископаемых в Средней Азии в XVI–XIX вв. – С. 39.
7. Пуд – 16, 3805 кг оғирликга тенг ўлчов бирлиги.
8. История Узбекистана в источниках. 1988. – С.33; Даль В.И. – Т. 4. – М.: 1980. – С.311.
9. Наказ БоРису и Семену Пазухиным, посланным в Бухару, Балх и Юренч. 1669. Издан под редакцией А.Н. Трувора //Русская историческая библиотека. – Т.15. – СПб, 1894. – С. 1-91; История Узбекистана в источниках. – 1988. – С. 67– 68.
10. История Узбекистана в источниках... 1988. – С.74-75.
11. Паллас П.С. Путешествие по разным провинциям Российской империй. Часть.1. –Спб. 1773. – С.348.
12. Юлдашев М.Ю. К истории торговых и посольских связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII вв. – Ташкент. 1964.– С.38.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»  
JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000